

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI GAZETALARIDA
FARG‘ONA TOPONIMI

Ahliddin Davlatjon o‘g‘li Tursunov

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar univeristeti

Harbiy jurnalistika yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

tursunovahliddin270@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ikkinchiji jahon urushi davrida chop etilgan gazetalar, ularning bugungi kunda o‘sha davr turmush tarzini o‘rganishdagi ahamiyati, gazetalarda keltirilgan Farg‘ona viloyati haqidagi maqolalar tahlil etiladi. Farg‘ona toponimi qo‘llanilgan maqolalar va ularning tahlili taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Ikkinchiji jahon urushi, gazeta, front, janggoh, Farg‘ona, millatdosh, Vatan.

O‘zbekistonning sharqiy qismida joylashgan Farg‘ona viloyati ayrim manbalarda “O‘zbekiston durdonasi”, ayrimlarida “Sharq gavhari” kabi nomlar bilan tilga olinadi. Albatta, bu nomlar o‘z-o‘zidan berilib qolmagan. Tarixan shakllanishi miloddan avvalgi asrlarga borib taqaladigan bu joy nomining kelib chiqishi haqida olimlar “Farg‘ona” so‘zining bundan 13 asr ilgari sug‘d yozuvlarida “Parg‘ana”, “Prag‘ana” shakllarida yozilganligini hamda hind-sanskrit tilida “kichik viloyat”, fors tilida “tog‘ oralig‘idagi vodiy”, “atrofi berk soylik” degan ma’nolarga ega ekanini ta’kidlaydilar. Madaniyatimizga qo‘yilgan tamal toshi o‘z kamolotini Dovon davlati davrida, ya’ni Xitoy solnomalarida qayd qilingan mil.avv. II asrdan to V asrlargacha topgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Farg‘onaga atab juda ko‘p she’rlar kuylangan va qo‘schiqlar bag‘ishlangan. Chunki oddiy so‘zlar Farg‘onaning jozibasini yetkazishga ojizlik qiladi. Ikkinchiji jahon urushi yillarida Farg‘ona xalqi

O‘zbekistonning boshqa hududlaridagi kabi jonbozlik ko‘rsatdi. Ikkinci jahon urushiga yurtdoshlarimizni jalb qilishda bosh-qosh bo‘lgan o‘sha davrdagi O‘zbekiston rahbari Usmon Yusupov ham farg‘onalik edi. Farg‘ona yerlarida tug‘ilgan, voyaga yetgan vatandoshlarimiz urushda g‘alabaning ta’minlanishiga ulkan hissa qo‘shgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Urushda ishtirok etgan boshqa askarlar qatori farg‘onaliklar ham oila a’zolariga, yaqinlariga xatlar yo‘llagan, davriy gazetalarda qator chiqishlar qilgan. Tarix fanlar doktori, professor Nazira Abduazizovaning yozishchicha, 1941-1945- yillardagi urush davrida barcha jabhalar singari matbuot tarmog‘i ham birmuncha qisqardi, qator gazeta va jurnallarning hajmi va nusxasi kamaydi. Bu davrda harbiy harakatlar kechayotgan sobiq ittifoq hududida o‘zbek tilida ham harbiy davriy matbuot tashkil etildi. Shu urush yillarida o‘zbek tilida jami 14 ta harbiy gazeta nashr qilingan. [1] Ikkinci jahon urushi davomida chop etilgan gazetalarining bugungi kunga qadar saqlanib qolgan qismlari tarix va jurnalistika sohalarida faoliyat olib borayotganlar bir qatorda, o‘zbek xalqiga mansub har bir inson uchun muhim ahamiyatga egadir. Tarix fanlari doktori, professor Rustambek Shamsutdinov arxivlarda saqlanib kelayotgan front gazetalarining materiallarini jamlab, kitob tuzdi. Bu kitob faqat “Vatan uchun”, “Suvorovchi”, “Sovet jangchisi”, “Qizil askar haqiqati” harbiy gazetalarining ma’lum sonlaridagi materiallar asosida yaratildi. [2] Shubhasiz, mazkur gazetalarining deyarli har bir sonida Farg‘ona toponimi qo‘llanilgan.

“Vatan uchun” gazetasining 1942-yil 29-oktabrdagi 1-sonida Ilya Erenburg muallifligi ostida “O‘zbeklar” maqolasi chop etiladi. Maqola o‘zbek xalqi tabiat, rus qishlog‘ini ozod qilgan millatdoshlarimiz haqida ma’lumotlar aks etgani bilan ahamiyatlidir. Vodiylarning mehnatkashligi, do‘stona suhabatni, oydin kechalarni yoqtirishi, begonaga qurol bilan o‘qtalmasligi alohida ta’kidlanadi. Urush esa shu xalqning ham qo‘liga qurol berdi. Maqolaning mazmun jihatidan qurilishida biroz uzilishlar sezilsada, uning urush tafsilotlari bayonini o‘zida saqlagani bu kamchilikni yopib yuboradi. Maqolada urush janggohlari tavsiri, Farg‘ona geografiyasi haqidagi ma’lumotlar uzviylikni

yo‘qotgtan holda bayon etilgan. Farg‘ona jannat bog‘lari singari ko‘n-ko‘k ekanligi, uzumlari shirador bo‘lishi, paxta dalalari afsonaviy boyliklarni tortiq etishi maqolaning yakunini belgilaydi. Maqolada o‘zbek xalqi, O‘zbekiston, Farg‘ona vodiysi haqida ma’lumotlar aniq, lo‘nda qilib berilgan. Jangga farzandini kuzayotgan o‘zbek onalarining xasratlari, farzandlariga Vatanni himoya qilish kerakligi haqida so‘zlari bilan maqola yanada boyigan. Toponim qo‘llanilgan keyingi maqola aynan shu gazetaning 1942-yil 5-noyabr sonida uchraydi. Serjant Omon G‘afurov muallifligidagi maqola “Quyoshli Farg‘ona uchun” deb nomlangan. Maqola ota-onasidan erta yetim qolgan serjantning davlatga alqovi bilan boshlanadi. Boshiga qora kun bulutlari kelay deb turganda hukumat uni asragani, ko‘chada bir parcha nonga zor bo‘lib yurmaganining sababchisi shu hukumat ekanligini aytadi. Serjant Farg‘onani “Baxtlar vodiysi”, “Vatanimning faxri” deya ta’riflaydi. Albatta, bu fikrlar bejiz aytilmagan. Maqolada safdoshlari bilan birga jang qilayotgan askarlar qalbida Vatanni asrash, g‘alaba bilan uyga qaytish tuyg‘ulari kurtak otayotganini ta’kidlanadi. Nemis fashistlarining qabih niyatları amalga oshishiga to‘sinqilik qilgan askarlaridan biri sifatida serjant 10 ta fashistning hayotiga nuqta qo‘yganini aytadi. Maqolaning so‘ngida serjant Omon G‘afurov Vatn uchun shersharcha jang qilishini, g‘alaba bilan uyga, jonajon Farg‘onaga qaytish uchun qasam ichadi. Maqola jangchining taassurotlari, qalbidagi o‘ylar o‘zining tilidan bayon etilganligi bilan ahamiyatlidir. Gazetaning 1942-yil 27-dekabrdagi sonida O‘zbekistonning o‘sha paytdagi boshqaruvchisi – O‘zbekiston K(b)P MK sekretari Usmon Yusupovning Moskva, VKP(B) MK rahbariyatiga yo‘llagan xati bayon etilgan. Xatda “O‘zbekiston kolxozchisi” nomli tankalar va jangovar samolyotlar kurish uchun naqd pul bilan 260 million so‘m to‘plaganlari, shundan 30 millioni Farg‘ona viloyati xalqiga tegishli ekanligi tasvirlangan.

Ikkinchi Boltiqbo‘yi frontida o‘zbek tilida chop qilingan yana bir nashr “Suvorovchi” gazetasidir. Gazetaning mas’ul muharriri N.A.Bubnov, mas’ul muharrir o‘ribbosari Mumtoz Muxamedov va marg‘ilonlik jurnalist Nabi Yusupov bo‘lgan. Mazkur gazeta maqolalarida ham shubhasiz, Farg‘ona

toponimi keng qo'llanilgan. 1944-yilning 12-fevraldagi sonida Pavlenko muallifligida nashr etilgan “Ergash Nurbutayev” maqolasi ham yuqoridagi fikrlarimiz isbotidir. Maqolada o‘zbek xalqining ezgu fazilatlari, buniyodkorlik g‘oyalari Katta Farg‘ona kanalining qurilishi misolida aks ettirilgan. Ma’lumki, Katta Farg‘ona kanali hech qanday texnikalarsiz, xalqning qo‘l mehnati bilan buniyod etilgan. Maqolada ham bu Vatanimiz tarixining shonli sahifalaridan biri ekanligi, kanal foydalanishga topshirilgan paytni esa xalq katta bayram sifatida nishonlagani ta’kidlanadi. “Suvorovchi”ning 1944-yil 19-mart sonidagi “O‘zbek xalqining buyuk g‘alabasi” maqolasida ham Katta Farg‘ona kanali qurilganligi g‘oyat katta ahamiyatga ega bo‘lganligi keltiriladi. Gazetaning 1944-yil 28-maydagi 32-sonida “Uni Farhod der edilar” maqolasida farg‘onalik bir qancha jangchilar urushning ilk kunlaridanoq jang maydonlarida ekanliklari tasvirlanadi. Jangchilar O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiya Iroilovaning vatan urushi janglarida nemislar bilan olishib qurban bo‘lgan Qobil Qoriga atab yozgan “Uni Farhod der edilar” she’rini o‘zgacha kutib olishgani, she’rni yod olganliklari, dushmanga qarshi kurashda yanada kuch bag‘ishlaganini aytib o‘tishgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, gazetalarni o‘rganish orqali o‘sha davr muhitini yaxshiroq anglash, tushunib yetish, bugungi dorulomon kunlar osonlikcha kelib qolmaganini tushunib yetish mumkin. Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlar Ikkinchiji jahon urushi davri gazetalarini o‘rganish orqali urush haqidagi taassurotlarni o‘zgartirib yuborishini tasdiqlaydi. Garchi mazkur gazetalarda Sovet hukumatining olqishlanligi yaqqol sezilib tursada, urush tafsilotlari, jangchilarning kayfiyati, Vatan oldidagi mas’uliyatni his etishlari olqishga sazovordir. Jangchilarning g‘alabaga ishonishlari, kutib turgan oila a’zolari va millatdoshlarining oldiga yorug‘ yuz bilan qaytishlari maqolalarning asosini tashkil etadi. Urg‘u ko‘proq Moskva va Rossiya yerlariga tushirilishi lozim bo‘lgan davrda Farg‘ona va O‘zbekistonning boshqa hududlari ham tilga olingani ozgina bo‘lsada kayfiyatimizni ko‘taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshkent matbuoti. N.Abduazizova. Toshkent, 2010.
2. Ikkinci jahon urushi va front gazetalari. R.Shamsutdinov. Toshkent; Akademnashr, 2017.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki>
4. <https://tarix.sinaps.uz>